Volume 2, Issue 2,2024

“TARBIYASI OG’IR” BOLALAR XULQ-ATVORINI TO’G’RILASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Nurmonova Nargiza Toyirovna
Navoiy viloyati Nurota tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi psixologi

Annotatsiya: Maqolada “Tarbiyasi og’ir” bolalar, xulq-atvorini to’g’rilashning psixologik masalalari, ota-onalar bilan bolalar orasidagi munosabat bayon etiladi.
Резюме: В статье рассмотрены «трудновоспитаемые» дети, психологические проблемы коррекции поведения, взаимоотношения родителей и детей.
Summary: The article discusses “difficult-to-educate” children, psychological problems of behavior correction, and relationships between parents and children.
Kalit so’zlar: tarbiyasi og’ir, xulq-atvor, xulqi qiyin, og’ir, shaxs.
Ключевые слова: сложное воспитание, поведение, сложное поведение, трудная личность.
Keywords: difficult upbringing, behavior, difficult behavior, difficult personality.

“Tarbiyasi og’ir” bolalar hammaga ma’lum bo’lgan va afsuski, allaqachon ko’nikib ketilgan bu atama ortida nimalar turadi? Militsiya xodimi uchun - u qo’lida rogatka ushlagan bezori, bola o’qituvchi uchun - sinfdoshlariga yomon ta’sir ko’rsatuvchi norasmiy, bolalar bog’chasi tarbiyachisi uchun esa – harxashali injiq, yengiltak tinib – tinchimas bola. Ota-onalar uchun-chi? Har qaysisi uchun u o’zgacha ma’no kasb etadi. Ota-onalar tushunishidagi “tarbiyasi og’ir” bolaning mumkin bo’lgan barcha variantlarini aytib o’tish foydasiz, chunki har qanday bola ham tabiatan “qiyin” bo’lishi mumkin. Odatda hamma bolalar ham tug’ilgan vaqtlaridanoq ota-onalariga ma’lum bir qiyinchilik keltiradi. Ammo ba’zilar uchun muammo bo’lgan narsa, boshqalarga hech qanday qiyinchilik keltirmaydi va u ko’pgina sabablarga bog’liq. Bolaga nisbatan ota-onalarining tutgan yo’li, oiladagi qadryatlar tizimi, oila a’zolari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning bor yoki yo’qligi, shuningdek boshqa ko’pgina narsalar bolani tarbiyalash jarayonida muqarrar ravishda paydo bo’ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish malakasini belgilab beradi.

“Tarbiyasi og’ir” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S Vigotskiy fikricha, “og’ir” bola hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma’lum bir qismi intizomsiz, qo’pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o’zgartirish, ularga ba’zi huquqlarini berish yo’li bilan ularga ta’sir o’tkazish mumkin.Shuni aytish lozimki, “tarbiyasi og’ir“ bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o’qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

Tarbiya jarayoning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar tarbiyali bo’lim – bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iboratdir: Bunday nazorat inson yomon xatti-harakatlarini bajarmaslik imkoniyatini beradi.

Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg’ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo’ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvini o’rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi: Bola o’zini egosentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag’batlantirilishi kerak? Tarbiya o’z muhitiga ko’ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishdir. Agar ta’lim shaxsning ongini shakllantirish bo’lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta’sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g’amxo’rlik qiladigan ota-onasiga bog’lanib qoladilar. Ota-onaning oldida bo’lish, ular bilan muloqotda bo’lish bolalarga juda yoqadi, ulaning yo’qligi bolalarga yoqmaydi. Ota-onaning g’amxorligini bildiradigan so’zlar xatti-harakatlar bola uchun juda kata ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo’ladi. Xulq-

atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab-quvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorlarni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor hamma bolalarga ham taluqli emas.

Bolalarni tarbuyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarning roli katta. Tarbiya jarayonida g'amxorlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxor ota-onalarga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolalarning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvatlamaganda bola o'z xatti- harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Konfutsiy "Eskini o'zlashtirgan, yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi." degan edi. Hamma kishilar ham bir xilda bo'lmaydi, shuningdek, oilalar ham turlichadir. Shubhasiz bolalar ham bir biriga o'xshamaydi. Bu tabiiy xol. Lekin ko'pincha kattalar buni unitib qo'yadilar, o'zlaricha qandaydir umumiy tavfsiyalardan yordam ko'rishga moyil bo'ladilar va bunda: " bola… bajarishi kerak", "bolaga mumkin emas" kabi so'zlarni ishlatadilar. Bu esa xato. Bola avval boshidanoq hech narsani bajarishga majbur emas, unga hech narsa joiz ham emas. Aksincha, kattalar bolaning meyorida rivojlanishi uchun sharoit yaratishlari, uni kishilar orasida yashashga o'rgatishlari, ularning his-tuyg'ularini, xohish-istaklarini va ishlarini tushunishlari lozim. Vaqt o'tishi bilan, payti kelganda uning o'zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nima qilishga majburligini, kimning oldida qarzdorligini va bu qarzlarni boshqa kishilarga o'z ota-onalariga, do'stlariga va nihoyat, o'z bolalariga nisbatan mexr-muhabbat, mexribonligi bilan uzishni tushunib oladi.

Buning uchun esa bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish, uni tushunishga harakat qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarning qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydigan, balki, aksincha oilada qadryatli hisoblangan o'zaro hurmat, iliqlik va himoyalanganlik xis etishga yordam beradigan usulini topish kerak. Gap kichkintoy bola haqida borganda "qiyin" atamasi qo'llanilmaydi. Har xolda ota-onalarning "qiyin" chaqaloq, haqidagi shikoyatlarini eshitishga tog'ri kelmaydi, garchi bu bosqichda qiyinchiliklar ko'p bo'lsa ham. To'g'ri, bu qiyinchiliklar tashqi, psixologik xarakterda bo'ladi va ko'pchilik ota-onalar tomonidan muqarrar yuz beradigan, ammo vaqtinchalik hodisa sifatida idrok qilinadi. Biroq birinchi qiyinchiliklar o'rniga boshqalari paydo bo'ladi, ular chaqaloqlik davrida, ayrim xollarda undan ham oldin bolaning tug'ilishini kutish vaqtlarida yashirilgan bo'ladi. Hali bola go'daklik davrida onasi unga qanday munosabatda bo'lish to'g'risida unchalik qayg'urmaydi, u ana shu jajji jigargo'shasini parvarish qilishga doir hamma ishlarga ulgursa va uxlab olsa yetarli.

Shu narsa aniqlandiki, uyda xotirjamlik hukum surib, janjal va nizolar bo'lmasa, bola uchun ham yaxshi, u qattiq uxlaydi, ishtaxasi ham bo'ladi. Shunday qilib, onada ham, bolada ham, bo'ladigan qiyinchiliklar avval boshidanoq umumiydir. Kattalar esa buni har doim ham anglab yetmaydilar. Faqat ayrimlargina bolaning kechinmalarini obektiv baholashga bo'ladilar. Agar ba'zilar bola biror narsadan iztirob chekganida yig'lashi xarxasha qilishini tushunsalar, boshqalar hech qachon bu haqida o'ylab ham ko'rmaydilar. Ular bolaning injiqligiga yo e'tibor bermaydilar, yoki uni har qanday usul bilan chalg'itishga urinadilar. Buning sababini o'ylab ko'rish, tushunish uchun ularning vaqti ham, tajribasi ham yetmaydi. Natijada kutilmagan vaziyat vujudga keladi: bola doimo "onaning psixologik xolatiga moslashadi", onasi esa har doim ham bolaning holatini tushunmaydi. U bolasi xis qilayotgan qiyinchiliklarni uqib tushunib ololmaydi. U faqat kichkintoyini o'ziga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirayotganini tushunadi xolos. Shundan keyin bola haqida qiyin, unga xalaqit beruvchi, tashvish uyg'otuvchi, majburiyat yuklovchi, xavotirliklar keltiruvchi dastlabki, barqaror tasavvur hosil qiladi. Shu tariqa "xulqi qiyin", "tarbiyasi og'ir" bolalar paydo bo'ladi. U kattalarning vujudga kelgan vaziyatga yetarlicha baho bermagan, undan boshqa hech kim bolada paydo bo'lgan nuqsonlarni tuzata olmasligini, hech bir kimsa uning

bolasini “muloyim” qilib qo’ymasligini anglagan vaqtda emotsional aloqaning buzilishi tufayli paydo bo’ladi.

Nima uchun kattalar bola bilan bo’ladigan munosabatlarida har qanday qiyinchilikka duch kelganlarida boladan achiqlanadilar va undan shikoyat qiladilaru o’zlarining imkoniyatlarini izlab ko’rmaydilar? Ular qarindosh urug’lardan, tanishlardan, pedagoglardan, xatto psixolog va psixoterapevtlardan maslahat so’raydilar. Ulardan uni, buni qilish, ma’lum vaqtdan keyin esa mana buni qilish kerak, shunda shikoyatlariga o’rin qolmaydi, hammasi o’z o’rniga tushib ketadi, qabuldagi aniq bir tavfsiya, yo’l-yo’riqlar kutadilar. Vaholanki bu maslaxatlar ko’p narsa bermaydi. Faqat ota-onalarning o’zlari vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilishlari va aynan shu oilada, aynan shu bolaga nisbatan qanday yo’l tutish zarurligini va mumkinligini belgilashlari mumkin. Mumkin bo’lgan ko’pgina variantlar orasidan to’g’risini tanlashda ota-onalarga psixologning ham, tajribali pedagogning ham maslahatlari yordam berishi mumkin.

Jamiyatning axloqiy normalari va talablariga mos kelmaydigan axloqni ilmiy pedagogik adabiyotda umuman tarbiya asotsial axloq atamasi bilan belgilash qabul qilingan. Bolalarning normadan chetga chiqqan xatti-harakatlaridan farqli o’laroq asotsial axloq ijtimoiy jihatdan determinizmlashgan, salbiy mikromuhitning ta’siri, oiladagi nonarmal o’zaro munosabatlar, oila va kasb-hunar maktabi tarbiyasidagi kamchiliklar, xatolar natijasida yuzaga keladi.

“Qiyin” yoyinki “Tarbiyasi og’ir” bolalar esa pedagogik jihatdan qarovsiz qoldirilgan bolalardir. Ular shaxsning axloqiy jihatdan o’zgarishini- pedagogik xatolar oqibatidir.

Shaxsni kuzatish talab etiladigan keng doiradagi bolalar “qiyin” bola atamasi bilan belgilanadi. Kattalarning talablari maslaxatlariga qarshilik ko’rsatadigan, ularning so’zga kirmaydigan, injiq, o’jar bolalar shu toifadagi bolalar qatoriga kiritiladi. Ularning tarbiyasidagi bunday og’ishlarning sababini aniqlash, bolaga nisbatan talabchanlik ko’rsatish bilan bir vaqtda uning ehtiyojlari, qiziqishlariga e’tibor berish va faoliyatining kollektiv shakllariga jalb etish– bolaning fe’l-atvorida paydo bo’ladigan injiqlik, o’jarlik, itoatsizlikning oldini olish va ularni bartaraf etishning asosiy yo’lidir.

Bolalarning ma’lum qismi sho’xligi, intizomsizligi, qo’rsligi bilan ajralib turadi. Bunday o’quvchilarga individual yondashish va ularning intizomsizlik sabablarini aniqlash lozim. Bunday bolalar bilan olib boriladigan ishlar ularning faolligini maqsadga muvofiq tashkil etish, qadr-qimmati, ma’lum darjada mustaqillikka bo’lgan huquqlarni hurmat qilishni nazarda tutadi. Qiyin bolalar bilan olib boriladigan ishlar nazokat, individual yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv birinchidan bolaga e’tibor bilan, hayrixox munosabatini, ikkinchidan uning ijobiy fazilatlariga tayanishni va uchinchidan uning axloqiy kuchlari, potensial imkoniyatlariga ishonishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda bolalar tomonidan yo’l qo’yiladigan qonunbuzarliklarning oldini olishda maktabning roli katta. Eng yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan o’qituvchi tarbiyaviy jarayonning bosh tashkilotchisi, o’quvchiga, o’quvchilar jamoasiga, oilaga ko’rsatiladigan pedagogik ta’sirlarning muvofiqlashtruvchisi sifatida namoyon bo’lmoqda.

Balog’atga yetmagan bolalarning qarovsizligi va qonunbuzarliklarining oldini olishni kasb-hunar maktabi tomonidan amalga oshirilayotgan yaxlit sistemaning bir qismi deb qarash lozim. Ana shu jarayon doirasida pedagoglarning sayi-harakatlari quyidagilarga qaratilishi kerak:

- O’quvchi shaxsini tarkib toptirishga salbiy ta’sir etuvchi tashqi omillar ta’sirining oldini olishga, bola huquqlarining buzilishiga va buning oqibati sifatida o’quvchi tarbiyasining qiyinlashuviga olib keluvchi sabab va sharoitlarni yo’qotishga;
- Butun tarbiya jarayonini tuzatishga uning normallashuvi ikki darajada ro’y beradi;
- a) bolaning rivojlanishidagi salbiy tomonlarni to’xtatish va barcha salbiy ta’sirlarni engib o’tish;

➢ b) ancha yuqori daraja axloqiy, ijtimoiy barqaror va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirish. Uning asosida haqiqat, to'g'rilik, yaxshilik, go'zallik, ma'suliyat, ong va xatti-harakat birligi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Bekmatova ,M Qurbonova lar "ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari" , Toshkent .OPI nashri, 1998-10 bet
2. Mannopov S.M. "oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi" Ma'ruzalar matni Farg'ona-2007 235 b
3. Komilova N.G'. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 105 b
4. G'oziyev E.G'. "Pedagogik psixologiya" –Universitet. Toshkent –1997 134 b
5. Tadjiyeva S.N. Sabirova.A.D. "Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish" Kurs o'tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent-2009 320 b
6. Inomova K.M. "Oilada bolalarnining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi"-Toshkent; Fan-1999 151 b

